

# JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

Nº 2 (7) 2022

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ХАЙЬАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош мухаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент</li><li>10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li><li>11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>12. Раҳмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>13. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф</li><li>14. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>15. Абдурахмонов F- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>16. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>17. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>18. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>19. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>20. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>21. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>22. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>23. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц</li><li>24. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>25. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чикарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www/natscience.jspi.uz](http://www/natscience.jspi.uz)

**AYRIM MANZARALI O’SIMLIKLARNING DORIVORLIK  
XUSUSIYATLARI**

*Go’zal Bozorova Safarbek qizi - o’qituvchi*

*Durdona Daminova Vohidjon qizi - 1-bosqich talabasi*

*Zuhra Xushvaqova Sa’dulla qizi - 1-bosqich talabasi*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya.** Tabiatda manzarali o’simliklar nihoyatda ko’p. Insonlar ulardan nafaqat estetik zavq olibgina qolmasdan, balkim ko’pchiligining dorivor xususiyatlaridan foydalanadi. Ham manzarali, ham dorivor o`simliklardan gulsafsar, gulxayri, gunafsha, lola, nargis va xinalardir. Tabiatning o’zi tabibdir deb bejizga aytilmagan. Hozirgi kunda ushbu o’simliklardan juda ko`plab o’tkir, surunkali va yuqumli kasalliklarni davolash maqsadida foydalanilib kelinmoqda.

**Kalit so’zlar:** gulsafsar, ildiz, ildizpoya, gulxayri, urug’, barg, gunafsha, lola, nargis, yog’, xina

**Gulsafsar (*Iris L.*)**

Gulsafsar va ayniqsa, uning ildizi sepkil va nuqtali qontalashda foyda qiladi. U bilan yuzni yuvilsa tozalaydi, yaltiratadi va ajirlarni ketkazadi.

Ildizpoyasi issiq suvdan kuyganga foyda qiladi.

Bargining qaynatmasi ham shunday (ta’sirga ega) bo’lib yaralarni bitiradi.

Gulsafsar ildizining va boshqa qismlarining shirasini asal va sirka qo’shib mis idishda qaynatib, eski yaralar va jarohatlarga ishlataladi.

Gulsafsar (ayniqsa yovvoyi gulsafsar) ildizining qaynatmasidan tish og’rig’i uchun og’iz chayiladigan dori tayyorlanadi. Bu dori uyqu keltiradi.

Yog’i boshdagи yaralarga va kepakka qarshi ishlatishga yaxshi, qulqoqqa tomizilsa, qulqoqning shang’illashini to’xtatadi (Sirka va gul yog’i bilan qo’shib bog’lansa, bosh og’rig’iga foyda qiladi).

Gulsafsarning ildizlari “tikka nafas olish” ga foyda qiladi (yo’talni tuzatadi, ko’krakdagи tozalanishi qiyin bo’lgan rutubatlarni suyultiradi).

Yog’ini ichilsa, surtilsa, ochuvchi, shimdiruvchi, bachardon qattiqliklarini yumshatuvchi bo’ladi. Bachardon kasalliklariga foyda qilishda unga hech narsa barobar kelmaydi. U ichak og’riqlarida foyda qiladi.

Sovuq yedirib titratuvchi isitmaga foyda qiladi.

Yog’i burun teshiklarining hidini ketkazadi.

Qaynatmasi ham shunday.

Uyquda qichqirish kasalida foyda qiladi.

Ko’z yoshini tortadi. O’pka yallig’lanishida, nafas olish qiyinlashganida va tomoq og’riqda foyda qiladi.

Gulsafsarning ildizini sirkaga bilan ichilsa, jigar va taloqning sovuqdan bo’lgan og’riqlarini, ayniqsa, taloqning og’rig’ini bosadi.

**Gulxayri (*Althaea* L.)**

Unda yumshatish-pishirish, bo’shashtirish va shimdirish xususiyatlari bor, urug’ va ildizlari quvvatda uning o’zidan kuchliroq, quritishi ko’proq va o’zi latifroq.

Uni sirkaga bilan qo’shib dog’larga surtiladi va (kasalni) oftobda o’tkazib qo’yiladi, bu jihatdan uning urug’i kuchliroq.

U shishlarni yumshatadi va qaytaradi hamda qonli shishlarni shimdiradi, chipqonlarni pishiradi.

U ayniqsa o’rdak yog’i bilan qo’shib ishlatilsa, bo’g’inlardagi og’riqni bosadi.

Agar uni qo’yib bog’lansa, qulqoq bezlaridagi shishlarga foyda qiladi.

Qovoq salqiganini va shishlarni qaytaradi.

Uning urug’i issiq yo’talga foydali bo’lib balg’amning ko’chishini yengillashtiradi va o’zidagi burishtirish quvvati tufayli tuflashni to’xtatadi.

Uning barglari zotiljam va o’pka yallig’lanishi kasalliklariga qo’yib bog’lansa foyda qiladi.

Gulxayrining yelimi tashnalikni bosadi.

Gulxayri ildizining qaynatmasi ichilganda, siyishdagi achishishlarga hamda ichaklarning achishishiga foyda qiladi.

Uning barglari ham shunday ta’sirga ega.

Uning urug’i va yelimi ich ketishni to’xtatadi. Uni suv qo’shilgan sirkaga bilan aralashtirilganini ari chaqqan joyga surtsa foyda qiladi.

**Gunafsha (*Viola* L.)**

Buni hidlash va surtish qondan bo’lgan bosh og’rig’ini bosadi. Quyuq sutmasi arpa talqoni bilan birgalikda yallig’li shishlarni bosadi.

Yaproq’i ham shunday ta’sirga ega.

Gunafshaning yog’i qo’tir uchun yaxshi surtmadir.

Buni (qo’yib bog’lash va ichish) issiq ko’z og’riqda yaxshi ta’sir beradi.

Issiq yo’talga foyda qiladi. Gunafsha, ayniqsa, uning shakarda pishirilgan murabbosi ko’krakni yumshatadi.

Me’daning yallig’lanishida foyda qiladi.

**Lola (*Tulipa* L.)**

Lolaning shirasini bosh va miyani tozalash uchun burunga tortiladi. Boshdan rutubatlarni tortish uchun uning ildizi chaynaladi.

Uning shirasini asal bilan qo’shib ishlatilsa, ko’z xiralanishiga, ko’zga oq tushishiga va ko’zdagi yaralardan qolgan izlarga foydalidir.

Quritilgan lola chirkli yaralarga foyda qiladi va ularni bitiradi, po’st tashlashga ham foyda qiladi.

Lolani qaynatib, qattiq bo’lmagan shishlarga surtiladi hamda chipqon va issiq toshmalarni buning vositasi bilan (yorib) bo’shatiladi.

Yong’oq po’chog’i bilan aralashtirib ishlatilsa sochni qoraytiradi. Barg va shoxchalarini shundayligicha yoki qaynatib ishlatilsa sochni qoraytiradi.

**Nargis (*Narcissus* L.)**

Nargisning ildizini asal va yovvoyi yasmiq bilan qo’shadilar va bu aralashma qiyinchilik bilan yetiladigan yiringli shishlarni yoradi.

Nargis jarohatlarni qovjiratadi va ularni shunday yopishtiradiki, hatto paylarning uzilishini ham (mahkam biriktirib yuboradi). Asal bilan yanchib olovdan kuyganga, chuqur yaralarga qo’yiladi.

Nargis yog’i asabga foyda qiladi. Ildizidan bo’g’inlar og’rig’iga quyuq surtma tayyorlanib ishlatiladi.

Nargis miyadagi tiqilmalarni ochadi va savdodan kelib chiqadigan rutubatli bosh og’rig’iga foyda qiladi.

Nargis yog’ini ko’krakka surtilsa, ko’krak-qorin to’sig’idagi qattiq va sovuq shishlarni tarqatadi.

Agar nargisning ildizini o’z holicha yeysa, ko’ngilni aynitadi va qustiradi, qaynatmasi ham shunday ta’sir ko’rsatadi.

Nargis bachadon va qovuqdagi og’riqlar uchun foydalidir.

**Xina (*Lawsonia* L.)**

Xina guli asab og’riqlarida ishlatiladi, falaj ham tortishish kasalliklariga qo’yiladigan malhamlar tarkibiga kiradi.

Yog’i charchaganlikni tarqatadi, asablarni yumshatadi va suyak singanga foyda qiladi.

Bosh og’rig’ida sirka bilan manglayga surtiladi.

Shuningdek, og’iz yaralarida ham foyda qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Anvar Sobirjon o’g’li. Salomatlik sandig’i. -Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994. –B. 41-45
2. I.E. Akopov Vajneyshie otechestvennie lekarstvennie rasteniya i ix primenenie –T.: Meditsina 1976. –S. 342-343
3. M. Nabiyev, T. Odilov, O’. Pratov, G’. Shermatov Qiziqarli botanika – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti. 1975. –B. 131-133
4. Sh.J. Tojiboyev, N.H. Qarshiboyeva Botanika Yuksak o’simliklar sistematikasi – “Namangan” nashriyoti. 2015. –B. 139-158